

TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHNING
AHAMIYATI

Bozorova Marjona hamid qizi

BuxDPI 1-kurs magistranti

Telefon raqam: +998883013637

Elektron pochta : marjonajahongir211@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda ta'lif tizimini modernizatsiyalashning muhim yo'nalishlari va huquqiy meyorlari asosida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: modernizatsiya, xalqaro tajriba, uzlusiz ta'lif tizimi, innovatsia

Abstract: In this thesis , the main directions and legal norms of the modernization of the educational system are discussed.

Key word: modernization, international experience, continuous education system, innovation

Аннотация: в данной диссертации рассматриваются важные направления и правовые нормы модернизации системы образования.

Ключевые слова: модернизация, международный опыт, система непрерывного образования, инновации.

KIRISH

Milliy ta'lif tizimini modernizatsiyalash haqida fikr yuritilganda ham aynan ta'lifni bugungi zamon talablariga moslashtirish, isloh etish, yangilash, zamonaviylashtirish nazarda tutiladi. Modernizatsiya tushunchasi deyarli barcha falsafiy lug'atlarda "zamonaviylashuv", "isloh etilish", "yangilanish" ma'nolarida berilgan. Modernizatsiya, modernizatsiyalash (fransuzchadan moderne - „eng yangi“, „zamonaviy“) - biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Ta'lif tizimini modernizatsiyalashda eng avvalo uzlusiz ta'lif tizimining yo'nalishlarida yangilash olib borish zarur. O'zbekiston Respublikasida ta'lif sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bu albatta- uzlusiz ta'lmdir. Uzlusiz ta'lif tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lif standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lif dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va maktabgacha ta'lif va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lif, professional ta'lif, oliy ta'lif, oliy ta'lifdan keyingi ta'lif, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lifni o'z ichiga oladi. Uzlusiz ta'lif ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tomonidan Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro

standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi” hamda “Oliy ta’lim standartlari xorijiy tajriba assosida takomillashtirish, ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqilishi zarurligi hamda mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar sonini ikki barobarga qisqartirish to‘g‘risida” aniq vazifalarni belgilab bergen edi. Professor-o‘qituvchilarimiz Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Fransiya, Chexiya, Niderlandiya kabi davlatlarda ta’lim olib, malaka oshirib kelmoqda. Prezidentimiz ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida bir qancha qonun va farmonlar ishlab chiqdi, videoselektorlar tashkil etdi. Bularga misol qilib ”Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur” (23.08.19y) nomli videoselektorni ayta olamiz. Bu yig‘ilishda ta’limni modernizatsiya qilish to‘g‘risida bir qancha vazifa va topshiriqlar belgilanib berildi. Prezidentimiz tomonidan xalq ta’limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlandi. Prezidentimiz yig‘ilishda maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i mакtabadir” degan fikrini alohida ta’kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to‘xtalib o‘tdi. Maktablardagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dinlar tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona “Tarbiya” fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi. Maktablarga buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblari, mashhur sarkarda ajdodlarimizning nomlarini berish muhimligi ta’kidlandi. Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchilardir. Ta’limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so‘z yuritar ekanmiz, unda yana bir muhim omil xalqaro tajribalar o‘zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq albatta. Xalqaro , chet el tajribasi ya’ni ta’limda o‘z yo‘nalishiga va uslubiga ega bo‘lgan davlatlarning ilg‘or tajribalarini olib kirish hozirda mamlakatimiz davlat siyosati oldida turgan maqsadlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi . Binobarin “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” ni tasdiqlanishi buning yaqqol isbotidir. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Xalq ta’lim tizimini rivojlantirish uchun esa eng avvalo uzlusiz ta’lim tizimini modernizatsiya qilish lozim. Mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta’limi, ixtisoslashtirilga va ijodiy ta’limni hamda o’rta maxsus, professional va oliy ta’lim jarayonini yangilash muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan mazkur ta’lim

muassasalarining faoliyati kuchayadi va mutaxassislar tayyorlash jarayoni takomillashadi. O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimining har bir bosqichi keyingi bosqich uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun biz eng dastlabki bosqichdan boshlab har bir yo'nalishni modernizatsiya qilishimiz zarur. Bularga quydagilar misol bo'la oladi. Maktabgacha va maktab ta'limini modernizatsiyalash tizimi, maktab ta'limini modernizatsiyalash, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim jarayonini modernizatsiyalash tizimi. Ta'lim jarayonini modernizatsiyalash orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan yangi davrga qadam qo'yilayotgan bir davrda keng fikrlash doirasiga ega, bilimlarni chuqur egallagan, o'z sohasida yetuk va davr talabiga javob beraoladigan shaxslarga bo'lган etibor va talab kuchayotgani yana bir karra, modernizatsiyalangan ta'limni va sifatli tashkil etilgan ta'limni joriy etish masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Har tomonlama mukammal shaxsni rivojlantirish uchun ham bir necha talablar mavjud:

-Zamonaviy va ilg'or ta'lim texnologiyalari

- Raqamlı texnologiya + zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiya
- Xalqaro tajribalar

Xalqaro, chet el tajribasi ya'ni ta'limda o'z yo'nalishiga va uslubiga ega bo'lган davlatlarning ilg'or tajribalarini olib kirish hozirda mamalakatimiz davlat siyosati oldida turgan maqsadlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, 2030-yilga borib o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda bosqichma-bosqich har bir yo'nalish mukammal darajaga yetgandagina qo'yilgan vazifalar to'laligicha bajarilgan deb ayta olamiz.

XULOSA

Bugungi kunda ta'lim tizimini yanada rivojlantirishimiz uchun xorijiy tajribalardan samarali foydalanishimiz, ta'lim tizimini isloh qilishimiz, ta'lim beruvchilarning zamonaviy texnologiyalardan, xorijiy ilg'or tajribalardan unumli foydala olishlarini tashkil etishimiz kerak. Prezidentimiz ham 28-yanvar 2022-yildagi selektorda bejizga "Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Maktab ta'limini rivojlantirsak, oliy ta'lim ham, ilm ham kelajakda rivojlanadi" deb aytmadilar. Ta'lim-tarbiya modernizatsiya bo'lsagina, jamiyatimiz rivojlanadi. Hozirgi vaqtida ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi. Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir pedagog ta'limga oid yangiliklarni

muntazam o‘rganib, ularni o‘z mehnat faoliyatida izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi muhim. Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimini yangilashda eng kichik bo‘g’inlardan boshlash kerak. Ta’limning fundamental bosqichlari rivojlansagina, boshqa bo‘g’inlar rivojlanishi uchun asos bo‘la oladi. Bu orqali biz o‘z maqsadlarimizga erisha olamiz.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Yo`ldoshev J.F. Xorijda ta`lim (metodik qo`llanma) Toshkent: 1995-yil
2. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevningning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. // “Xalq so‘zi”, 8 fevral 2017
4. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga doir davlat dasturi.// www.ziyonet.uz.